

## O'ZBEKISTONNING QO'SHNI AFG'ONISTON DAVLATI BILAN MADANIY ALOQALARI (MUSTAQILLIK DAVRI)

**Mirkomilov B. M.**

*Prof., Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti*

**Rustamov O'rolbek Rayimbedri o'g'li**

*Magistr, Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti*

### ARTICLE INFO.

**Keywords:** O'zbekistonning Qo'shni Afg'oniston.

### Annotatsiya

Tarixiy manbalardan ma'lumki, o'tgan asrning dastlabki o'n yilliklarida amal qilgan o'zbek-afg'on madaniy aloqalari tarixiga bir sidra nazar solishning o'ziyoq, xalqlarimiz o'rtasidagi munosabatlar g'oyat ko'hna, samimiy, barqaror va bardavom ekanligidan, bugunga kundagi o'zbekafg'on madaniy munosabatlarining poydevori esa o'sha yillarning mustahkam zaminiga qo'yilganidan dalolat beradi hamda yangi sharoitda jumhuriyatlarimiz o'rtasida rivojlanib borayotgan, tarixan qaror topgan yaxshi qo'shnicilik, o'zaro ishonch va hurmat tamoyillariga asoslangan asriy an'analarimizni asrab-avaylab, uni yanada yuksak pog'onalarga olib chiqishga umid uyg'otadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Afg'oniston hamda O'zbekistonning ikki tomonlama madaniy tarixini o'rganish rusiyzabon tadqiqotchilar tomonidan izchil olib borilgan. Jumladan, N.F.Petrovskiy, A.P.Fedchenko, V.P.Nalivkin, M.V.Nalivkina, V.N. Kushelevskiy hamda A.F.Middendorf kabi tadqiqotchilarning ishlarida afg'on o'zbeklarining etnomadaniy aloqalari, ularning turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati hamda xo'jalik mashg'ulotlari haqida ma'lumotlar aks etgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil oktabr oyida o'rnatilgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan siyosatini pragmatik yo'lga o'zgartirdi. Pirovardida O'zbekiston — Afg'oniston aloqalari mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi va ular yangicha mazmun va izchillikni kasb etdi.

Ochiqlik, o'zaro ishonch, hamkorlikning iqtisodiy jihatiga ustuvor e'tibor bugungi yuqori darajadagi munosabatlarning asosini tashkil qilmoqda. Aytish joizki, bunday daraja shu paytgacha hech qachon kuzatilmagan edi.

Ikki davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoev va Ashraf o'anining siyosiy irodasi tufayli amaliy natijalarga erishilyapti. Prezidentlarning keng ko'lamli sa'y-harakatlari va ochiqlik ruhidagi shaxsiy muloqotlari bunday olamshumul mavqega yetishga imkoniyat yaratdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, 2017 yildan buyon ikki davlat rahbarlarining samimiylik va to'liq ishonch ruhidagi oltita uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf o'aning 2017 yil 4 — 6 dekabr kunlari O'zbekistonga amalga oshirgan tashrifi O'zbekiston — Afg'oniston aloqalarining yanada mustahkamlanishida muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Muloqotlar yakunida xavfsizlik, energetika va transport sohalariga oid 20 ta qo'shma hujjat, qiymati 500 million dollardan ziyod 40 ta tijorat shartnomasi imzolandi.

O'zbekiston mustaqillikning ilk yillaridan boshlab Afg'oniston bilan madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish taraddudida bo'ldi. Buning muhim bir sababi Afg'on diyorida o'zbek xalqining keng tarqalgani hamdir.

Afg'onistonlik o'zbeklarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi etnomadaniy jarayonlariga ta'siri o'rganishda tarixan ko'plab xalqlar va madaniyatlarining ta'siri, etnoslararo munosabatlarning tarixiy, madaniy, iqtisodiy omillari, mintaqadagi turkiy etnoslar va boshqa xalqlarning kelib chiqishi, tili, urf-odatlarini hamda marosimlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Afg'onistonlik o'zbeklarning etnosotsial va etnosiyosiy jarayonlar, etnoslararo munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillari hamda multikulturalizm g'oyasining milliy-madaniy munosabatlarga ta'siri kabi masalalar o'rganildi. Afg'onistonlik o'zbeklarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi etnomadaniy jarayonlariga ta'siri muhitida turli tarixiy davrlar mobaynida xalqlarning o'zaro integratsiyasi jadal kechgan. Bu jarayonda Afg'onistonlik o'zbeklarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi etnomadaniy jarayonlariga ta'siri ham ishtirok etganlar.

Afg'onistonlik o'zbeklarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi etnomadaniy jarayonlariga ta'siri etnomadaniy muhitidagi integratsiya jarayonlarini o'rganish afg'on o'zbek etnologiyasida tadqiq etilishi dolzarb hisoblangan ilmiy masalalardan biridir.

Afg'onistonlik o'zbeklarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi etnomadaniy jarayonlariga ta'siriga oid ma'lumotlar aks etgan manba va adabiyotlarni yaratilgan davri, mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Buxoro amirligi davridagi manba va adabiyotlar.
2. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri adabiyotlari.
3. Sovet davri tadqiqotlari.
4. O'zbekiston mustaqilligi davrida olib borilgan ilmiy izlanishlar.
5. Xorijiy adabiyotlar.

Ta'kidlash joizki, ikki davlatning madaniy aloqalari uchun yangi qurilgan temir yo'l muhim ahamiyatga ega. Bekiston Afg'oniston bilan ikki tomonlama aloqalarni sezilarli darajada kengaytirdi, afg'on muammosini hal qilish Bo'yicha ko'p tomonlama harakatlarga faol qo'shildi. O'zbekiston Surxon-Puli-Xumrielektr uzatish liniyasi va "Termiz-Mozori-Sharif-Peshovar" temir yo'l qurilishi yirik loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda<sup>1</sup>. Termizda Afg'oniston fuqarolari uchun Ta'lim markazi ochilib, hozirgi davrda afg'onistonlik talabalar ushbu Ta'lim markazini bitirib, ulardan ayrimlari Afg'oniston parlamentida, vazirliklari VA muassasalarida ishlamoqda, mamlakat oliy ta'lim muassasalarida muallimlik qilmoqda, mustaqil biznesni yuritmoqda.

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi Toshkent, O'zbekiston, 2022 yil 430 bet



*1-rasm. Hayraton do'stlik ko'prigi*

Afg'onistonda o'zbek xalqiga hurmat yuqori darajada. 21 oktabr O'zbekistonda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida bayram qilinadi. Aynan shu sanani 2020 yildan boshlab Afg'onistonda ham "O'zbek tili kuni" sifatida nishonlanishi va bu borada Afg'oniston Prezidentining maxsus farmoyishi qabul qilingani tahsinga sazovor. Buning sabablaridan biri Afg'onistonda o'zbek tili davlat tillaridan biri hisoblanishidir.

2020 yil 20 oktabr kuni mazkur bayram Afg'onistonda birinchi bor keng nishonlangani, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Afg'oniston Prezidenti va tadbir ishtirokchilari nomiga yo'llagan tabrik maktubi o'qib eshittirilgani, O'zbekiston hukumati delegatsiyasi ishtirok etgani Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar uchun buyuk iftixor bo'ldi.

Afg'onistonda yashovchi o'zbek ziyolilari sa'y-harakatlari va ularning Afg'oniston Prezidenti devoni tomonidan qo'llab quvvatlanishi natijasida 70 ming so'zni o'z ichiga olgan qomus yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Mazkur manba dariy va pushtu tillariga tarjima qilinib, alohida kitob shaklida chop etiladi. Bundan ko'zlangan maqsad – o'zbek tilini Afg'onistonda yashovchi millatlar orasida keng targ'ib etish va mavqeini mustahkamlashdan iborat.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti va Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bilan Kobul davlat universiteti o'rtasida o'zaro Anglashuv memorandumini imzolash maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. Ayni paytda O'zbekiston tomonidan taqdim etilgan hujjat loyihalari Afg'oniston tomonidan ko'rib chiqilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda ta'lim, so'z erkinligi va diniy bag'rikenglik kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan islohotlar madaniy aloqalarning namunasidir.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Samarali hamkorlikni amalga oshirishda madaniy-gumanitar soha ham muhim rol o'ynaydi. Xalqlarimiz o'rtasidagi asrlarga tatiydigan aloqalar madaniyatlararo rishtalarda ham o'z ifodasini topgan. Afg'oniston hududida bugun o'zbek millatiga mansub 4 milliondan ko'proq aholi istiqomat qilayotgani o'zaro hamkorlikka ijobiy ta'sir o'tkazmoqda. Ular o'z mehnati bilan nafaqat afg'on davlatchiligi asoslarini mustahkamlashga, balki O'zbekiston — Afg'oniston aloqalarini har tomonlama takomillashtirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. O'zbekiston hamisha do'st afg'on xalqiga yordam qo'lini cho'zadi. Bu nafaqat hurmat belgisi, balki uning bugun Markaziy Osiyo va dunyoda ro'y berayotgan jarayonlardagi alohida roli e'tirofi hamdir. Afg'oniston zaminiga uzoq kutilgan tinchlik va barqarorlik o'rnatiladigan kun, albatta, keladi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi Toshkent, O'zbekiston, 2022 yil 430 bet
2. Sultonova G.N, Allaeva N.A, Maxmudov Sh.Yu O'rta Osiyo xalqlarining etnik tarixi va mintaqada yuz bergan demografik jarayonlarning manbalarda aks etishi (XVI –XIX) asr birinchi yarmi. – Toshkent. "Yangi nashr". 2011.

3. Muhammad Xakimxon To‘ra. “Muntaxab at-tavorix” fors tojik tilidan tarjima, muqaddima, izohlar muallifi Sh.Vohidov. – Toshkent: Yangi ASR avlodi. 2010;
4. <https://www.uzanalytics.com/madaniyat>
5. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-va-afgoniston>
6. <https://gov.uz/uz/news/view>